


Yanvar –aprel 2018 yil


Chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar – aprel oylarida 3174,8 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 foizga oshdi, shundan umumiy ovqatlanish aylanmasi 72,5 mlrd so'mni (o'tgan yilga nisbatan 127,3 foizni) tashkil etdi. Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,2 foizni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati
(mlrd so'm, foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahri (25,1 foiz), Urgut tumani (14,8 foiz), Pastdarg'om tumani (7,8 foiz), Kattaqo'rg'on shahri (5,7 foiz) va Samarqand tumani (5,2 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi (foizda)




Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 851,9 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-aprel oylarida 700,9 ming so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Kattaqo'rg'on shahri (2084,0 ming so'm), Samarqand shahri (1502,1 ming so'm) va Urgut tumanida (971,2 ming so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 72503,4 mln. so'mni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 2,3 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Viloyatda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 851,9 ming so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,4 foizni tashkil etdi, shundan Samarqand shahri (1502,1 ming so'm) o'tgan yilga nisbatan 101,5 foizni, Kattaqo'rg'on shahri (2084,0 ming so'm) 99,1 foizni, Jomboy tumani (546,0 ming so'm) 98,9 foizni, Samarqand tumani (680,3 ming so'm) 103,4 foizni, Urgut tumani (971,2 ming so'm) va o'tgan yilga nisbatan 101,2




Shahar va tumanlar nomi	Ming. so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	851,9	100,4
Samarqand shahri	1502,1	101,5
Kattaqo'rg'on shahri	2084,0	99,1
Bulung'ur tumani	902,9	100,3
Jomboy tumani	546,0	98,9
Ishtixon tumani	538,5	99,1
Kattaqo'rg'on tumani	572,0	102,2
Narpay tumani	633,4	99,4
Nurobod tumani	929,1	99,3
Oqdaryo tumani	583,8	99,3
Payariq tumani	557,2	100,3
Pastdarg'om tumani	726,6	99,3
Paxtachi tumani	898,4	98,9
Samarqand tumani	680,3	103,4
Tayloq tumani	569,4	100,1
Urgut tumani	971,2	101,2
Qo'shrabot tumani	513,0	98,8

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,6 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 90,8 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining 2038,5 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 64,2 foizni tashkil etdi .



Kichik va mikrofirmalarning chakana tovar aylanmasi (845,7 mlrd. so'mni) o'tgan yilga nisbatan 98,5 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 26,6 foizni tashkil etdi.